

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.M.Qandov	
Turor risqulovning turkistonda milliy davlat qurilishi sohasiga qo'shgan hissasi.....	302
U.J.Mansurov	
Turkistonda mustamlakachilik siyosatiga qarshi jadidchilik harakatining o'ziga xos jihatlari.....	308
M.M.Alimova	
1920-1930 yillardagi kooperatsiya tizimi sistemasi	312
J.Museyibzada	
Improving Uzbekistan's economic cooperation through international organizations.....	315
A.A.Azizov	
Turonning qadimgi o'yinlariga oid ayrim mulohazalar (aqliy o'yinlar misolida)	324
A.T.Ahmedov	
Mustaqil O'zbekistonda kasaba uyushma tashkilotlarining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari	328
D.A.Urinbayeva	
Mustaqillik yillarida yoshlarni harbiy kasbga yo'naltirishda harbiy vatanparvarlik tarbiyasining o'rni.....	334
T.Ch.Xoliyarov	
Makedoniyalik Aleksandr nomi bilan bog'liq shaharlar tarixiy geografiyasi	340
X.X.Mamajonov	
Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyati tarixining usmoniyalar imperiyasi tarixshunosligida o'rganilishiga doir ayrim fikr va mulohazalar	347
I.S.Yusupov	
Mustaqillik yillarida O'zbekistonda pochta aloqa tizimiga raqamli xizmat turlarini joriy qilinish tarixi	351
F.K.Jumanazarova	
Ijtimoiy himoya tizimida xotin-qizlar bandligini ta'minlanishining maqsad va vazifalari hamda amalga oshirish mexanizmlari.....	356
U.X.Gulmatov	
O'zbekiston SSR transporti va uning sovet hukumati iqtisodiyotidagi o'rni	359

ADABIYOTSHUNOSLIK

U.B.Matmurotova	
Badii tarjimada stilistik muvofiqlik - stilistik vositalardan biri o'xhatish misolida.....	364
Sh.A.Safarova	
"Layli va Majnun" dostonining na't bobida an'ana va poetik yangilanish	369
D.I.Nazarova	
Hozirgi aruziy she'rlarda fonetik hamda leksik-stilistik o'zgarishlar	374

TILSHUNOSLIK

A.B.Uralov	
Til sathlarida nomutanosiblik	381
A.Sh.Muxamadiyev	
Properties of expressification of verbal aggression in uzbek and english literature.....	386
Sh.M.Sultonova, S.I.Sodiqova	
Ismlarning qo'llanilish dinamikasi sotsiomadaniy muammo sifatida	393
U.Sh.Turaeva	
Yuridik terminlar tarjimasida sinonimiya tarjima muammosi sifatida.....	398
Y.T.Rakhmonkulova	
A comparative study of kinship aphorisms in english and uzbek languages	401
O.F.Turdaliyev	
"Guliston" asarida somatik birliklarning qo'shma fe'l yasalishidagi roli	405
M.O.Usarova	
Ingliz va o'zbek tillarida salomatlik va kasallikka oid maqollarning semantik xususiyatlari	413
Ч.Х.Чамолов, Ф.Р.Мандонова	
Смыковые нюансы соматических фразеологических единиц в селе хушер	417
B.Q.Nomonov	
Matbaa va qadoqlash sohasi terminlarining leksik struktur tadqiqi.....	426



УО'К: 92/94+37.01

TURONNING QADIMGI O'YINLARIGA OID AYRIM MULOHAZALAR (AQLIY O'YINLAR MISOLIDA)

НЕКОТОРЫЕ СООБРАЖЕНИЯ ОТНОСИТЕЛЬНО ДРЕВНИХ ИГР ТУРОНА (НА ПРИМЕРЕ УМСТВЕННЫХ ИГР)

SOME CONSIDERATIONS REGARDING THE ANCIENT GAMES OF THURON (USING THE EXAMPLE OF MENTAL GAMES)

Azizov Ahrorbek A'zamjonovich 

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti kichik ilmiy xodimi t.f.f.d

Annotatsiya

Ushbu maqolada Turon aholisining qadimgi davrdagi o'yinlari vujudga kelishi, shakllanishi, turlari va tarqalish hududlari tahlil etilgan. Ushbu o'yinlarning o'ziga xosligi va unga o'xshash o'yinlarga qiyosiy chog'ishtirish amalga oshirilgan. Maqolada qadimshunoslik topilmalari, devoriy suratlar va aholining qadimgi tasavvurlari asosida aqliy o'yinlar tarixi hamda ularning madaniy jihatlari ochib berilgan. Xususan, aqliy o'yinlarning taxtada o'ynaluvchi suyakdan yasalgan donali turi va chorvador aholi tomonidan o'ynalgan kattalar hamda bolalar o'yinlari yoritib berilgan. Bundan tashqari, o'yinlarning vujudga kelish omillari, maqsadlari va vazifalari ko'rsatib berilgan. Ayniqsa, bolalarni tarbiyalashda, o'qitishda o'yinlarning ahamiyati ko'rsatib berilgan. Shuningdek, donali taxtada o'ynaluvchi aqliy o'yinlarning bir qancha turlari hamda o'ynalish usullari bo'yicha ba'zi fikrlar ilgari surilgan. Qadimgi manzilgohlardan topilgan ayrim boshqa topilmalar asosida shakllangan ayrim aqliy oy'inlarga oid xulosalar ilgari surilgan.

Аннотация

В данной статье анализируется происхождение, формирование, виды и ареалы распространения ментальных игр народов Турана в древности. Проведено сравнительное сравнение уникальность этих игр с аналогичными играми. В статье раскрывается история ментальных игр и их культурные аспекты на основе археологических находок, фресковой живописи и древних представлений населения. В частности, выделены тип интеллектуальных игр на доске, а также игры взрослых и детей скотоводческого населения. Кроме того, показаны факторы появление, цели и задачи игр. Показано значение игр в воспитании и обучении детей. Также было предложено несколько типов интеллектуальных игр на игровой доске и некоторые идеи о том, некоторые методы игр. Сделаны выводы видов некоторые сформированные ментальные игры, на основе других находок, обнаруженных на древних поселениях.

Abstract

This article analyzes the origin, formation, types, and areas of distribution of mental games among the peoples of Turan in ancient times. A comparative comparison of the uniqueness of these games with similar games was carried out. The article reveals the history of mental games and their cultural aspects based on archaeological finds, fresco paintings, and ancient ideas of the population. In particular, the type of intellectual games on the board, as well as the games of adults and children in the pastoral population, are highlighted. In addition, the appearance factors, goals, and objectives of the games are shown. The importance of games in raising and teaching children is shown. It also suggested several types of mind games on the game board and some ideas about some methods of games. Conclusions have been drawn about the types of mental games formed based on other finds discovered in ancient settlements.

Kalit so'zlar: Turon, aqliy o'yinlar, o'yin donasi, o'yin taxtasi, shatranj, Joytun, Dalvarzintepa, buqa, qo'chqor, suyak o'yini.

Ключевые слова: Туран, ментальные игры, игровые предметы, игровые доски, чатуранга, Жайтун, Далварзинтепа, бык, баран, игра кости.

Key words: Turan, mental games, game tools, game board, shatranj, chaturanga, Jeytun, Dalvarzin-Tepa, ox, ram, game bones.

KIRISH

Eng qadimgi davrdan turli hududlarda istimoqmat qilib kelgan insonlar xo'jalik-madaniy tiplarga asos soldilar. O'zları tashkil etgan tizimning tajribalari, ko'nikmalarini yosh avlodga o'rgatish, uqtirish maqsadida turli usullar va vositalar qo'llanib kelgan. Bundan tashqari, inson

TARIX

turmush tarzida bo'sh vaqt ni samarali o'tkazish bo'yicha har xil rivojlantiruvchi o'ynilar ishlab chiqildi. Bunday o'ynilar – aqliy o'ynilar bo'lib, qadimgi Turon aholisi madaniy hayotida va bolalar tarbiyasida katta ahamiyat kasb etgan. Aqliy o'ynilar turlari va uning o'ynalish usullari xilma xil bo'lib, keyinchalik kirib kelgan boshqa o'ynilar ham Turon aholisi tomonidan yashash hududlariga moslashtirilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Turon qadimgi yodgorliklarida qazishmalar olib borgan tadqiqotchilarning asarlarida o'ynilar va ularga oid bo'lgan turli topilmalarga alohida e'tibor qaratib kelingan. Xususan, o'yin donalari va o'yin turlariga tegishli bo'lgan ma'lumotlarni o'zları ochib tadqiq etgan manzilgohlar hamda hududlar kesimida yoritib bergenlar. Shuningdek, ushbu manzilgohlar hududi va iqlim sharoitidan kelib chiqqan holda tashkil etilgan xo'jalik-madaniy tiplarning o'ynlarga ta'siri tahlil etilgan.

Qadimshunoslikka oid bunday tadqiqotlar sirasiga V.M.Masson, L.B.Kircho, S.P.Tolstov, L.I.Albaum, A.A.Asqarov kabi olimlarning maxsus tadqiqotlarini kiritish mukin. Shuningdek, qadimshunoslikdan tashqari elshunoslik bo'yicha olib borilgan izlanishlarda ham eng qadimgi davrga taaluqli tasavvurlarni tadqiq etish asnosida o'ynilar bilan bog'liq jihatlarga alohida to'xtalib o'tilgan.

Eng zamonaviy darv olimlari izlanishlarida esa vositali aqliy o'ynlarning tarixiy ildizlari to'g'risida ayrim mulohazalar ilgari surilgan. Bunday izlanishlar qatoriga M.Sattor, G.Mardonova, S.V.Yo'idoshev, A.R.Qayumov, K.Minniti, G.Ferlito, A.Sanvito kabi olimlarning tadqiqotlarini keltirish mumkin.

Maqola matnini shakllantirishda qiyosiy tahlil, madaniy doiralar ta'siri, evrilib va tarqalish nazariyalari qo'llandi. Shuningdek, zamonaviy davrdagi aqliy o'ynlarga oid qarashlarni va vositalarni eng qadimgi davr bilan qiyoslash maqsadida qisqa muddatli antropologik kuzatuv usullaridan foydalanildi.

NATIJALAR

Ilmiy muammo bo'yicha qo'lga kiritilgan natijalar quyidagicha: aqliy o'ynilar shakllanishi va vujudga kelishida xo'jalik-madaniy tiplar muhim ahamiyat kasb etgan hamda ularning hududlarga ko'ra o'ziga xosligi mavjud bo'lgan, o'ynlardan turli maqsadlarda foydalanib kelgan. Shuningdek, o'ynilar muayyan hududda istiqomat qilib kelgan aholining dunyoqarashi va madaniyatini ko'rsatib beruvchi identifikator hisoblanadi. Aqliy o'ynilar bir vaqtning o'zida bir necha vazifalarni bajarib kelgan. Bular: vaqt ni o'tkazish, bolalarni hisob va mantiqiy fikrlashga o'rgatish hamda qaror qabul qilishga o'rgatish. Bundan tashqari, borib-borib o'ynilar ma'lum ijtimoiy taqabaga xos belgiga aylandi va nodir ijtimoiy hodisa sifatida asrlar davomida boyib keldi.

MUHOKAMA

Qadimdan Turon hududi dunyo tamaddun beshiklaridan biri sifatida katta ahamiyatga ega bo'lgan. Ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan moddiy va nomoddiy madaniy meros jahonning turli xalqlari taraqqiyotiga ijobji ta'sir o'tkazgan. Shunday nomoddiy meros turlaridan biri o'ynilar hisoblanadi.

Insoniyat ilk davrlardan mashg'ulot turlari va xo'jalik yuritish usullaridan kelib chiqib, turmush tarzini yosh avlodga o'rgatish, ta'llim-tarbiya, jamoada shaxsni shakllantirish, an'analarini va elparvarlikni singdirish maqsadida o'ynlarni kashf etdi. O'ynilar orqali nafaqat o'z mashg'ulotini keyingi avlodga yetkazdilar, balki, dunyoqarashlarini, olam va odam to'g'risidagi tasavvurlarini o'rgatdilar. Natijada, bir qancha o'ynilar vujudga keldi. Ana shunday o'ynilar qatorida aqliy o'ynlarning o'rni beqiyosdir.

Eng qadimgi davr manzilgohlaridan topilgan turli osori-atiqalar ajdodlarimiz turmush tarzida turli o'ynilar bo'lganligini tasdiqlaydi hamda eng ko'p topilgan topilmalar bevosita aqliy o'ynlarga taaluqli hisoblanadi. Xususan, Turon janubiy qismida vujudga kelgan manzilgohlardan aqliy o'ynlarga oid turli topilmalar ochib o'rganilgan.

Ma'lumki, Turon hududida chorvachilik va ekin-tikinchilik mashg'uloti paydo bo'lgach, ular bilan bog'liq turli o'ynilar shakllangan. Bu o'ynilar bevosita mashg'ulot bilan bog'liq jarayon va tushunchalarni o'rgatishda foydalanilgan. Natijada, aqliy o'ynilar orqali bolalarga hayvon, o'simlik va boshqa tushunchalarni ifodalangan, tushuntirilgan. Xususan, Turonning eng qadimgi madaniyati Joytun bo'lib, uning bir qancha yodgorliklaridan odamlar, hayvonlarning turli haykalchalari [1:101-103] va o'ynichoq [2:86] uy-ro'zg'or buyumlari topib o'rganilgan. Ayniqsa, bolalar uchun

tayyorlangan hayvonlarning haykalchalar[3:98] alohida ajralib turadi. Neolit davriga oid ushbu topilmalar qadimgi ajdodlarimiz ijtimoiy turmushi to'g'risida eng qimmatli ma'lumotlarni o'zida ifoda etadi. Bolalarga turli hayvonlarni tanitish, ularning fe'l-atvori va boshqa xususiyatlarini tushuntirishda bunday o'yinchoqlar keng foydalanilgan. Tabiiyki tushuntirish va o'rgatish bevosita o'yinlar orqali tashkil etilgan. Turonning qadimgi davr ko'plab yodgorliklaridan shunday inson va hayvon shaklidagi mitti o'yinchoqlar ko'plab topilgan.

Aqliy o'yinlar turli vositalar bilan o'ynalib, ular yordamida fikrlashni, to'g'ri mulohaza qilishni shakllantirish maqsad qilingan. Turli kichik buyumlar vositasidagi aqliy o'yinlar turi borgan sari ko'payib borgan. Ulardan biri maxsus taxtada o'ynaluvchi o'yinlar hisoblanadi. Ular kichik o'yin donachalari bilan o'ynalgan. Bunday konussimon mayda o'yin donachalarining dastlabkisi Joytun manzilgohidan qazib olingen. Qadimgi Misrdan ham huddi shunday donalar va ular o'ynaluvchi chiziqli maxsus taxta topib o'rganilgan[4:34]. Bu ashyo taxtada o'ynaluvchi o'yinlar ancha qadimiy ekanligini va keyinchalik mintaqaga kirib kelgan shatranj shunday toifadagi o'yinlardan biri ekanligini tasdiqlaydi. Xuddi shunday o'yin donalari Turonning janubidagi Ilginditepa yodgorligidan ham topilgan[5:108].

Suyak oshig'i yoki boshqa vositalar aqliy o'yinlarda ham kattalar va ham yosh bolalar tomonidan qo'llangan. Xususan, Chust madaniyati yodgorliklarida qo'y oshig'idan yasalgan o'yin donalari juda ham ko'p topilgan. Suyak donalariga maxsus chuqurchalar qilinib, ichlariga bronza quylgan. Ustki qismi to'qqizil, silliq tarzda ishlangan. Berilgan ishlovdan suyaklar jilolanib turadi[6:105]. Oshiq o'yini chorvadorlar orasida qadimdan keng tarqalgan o'yin bo'lib, uning bir necha turlari bo'lgan.

Suyakdan yasalgan bunday vositalar yordamida nafaqat oshiq o'yini, balki, bolalar o'yinlari ham o'ynalgan. Chorva suyak qismlaridan bo'lgan oshiq bilan o'ynaluvchi turli o'yinlar qadimdan ma'lum bo'lib, ular bolalarni ham aqliy ham harakatli rivojlanishiga xizmat qilgan.

Qadimgi davrda Turon hududi savdo-elchilik aloqalari yanada kengayib, g'arbda Rim, sharqda Xitoy va janubda Hindiston bilan faol aloqalar olib bordi. Shuningdek, Sharqiy Turkiston va Shimoliy Hindiston Kushonlar sultanati tarkibiga kirkach, o'sha hududlarda mavjud o'yinlar ham krib kela boshladi. Bular qatorida hindlarning shatranj o'yini alohida ahamiyatga ega.

Shatranj o'yini hind diyorida vujudga kelgan bo'lsa-da, Turon orqali yer yuziga keng tarqaldi. Turonning ko'plab yodgorliklaridan shatranj donalari qadimshunoslar tomonidan topilgan. Xususan, Kushon sultanati davriga oid Dalvarzintepadan fil suyagidan yasalgan shaxmat donalari topilgan[7:63]. Turon hududi shaxmat donalari asta-sekinlik bilan muayyan o'zgarishlarga uchradi. Shaxmat donalari o'zida ramziy ahamiyat kasb etgan holda shakli va ko'rinishlari o'zgarib bordi.

Turon hududida boshqa turdag'i taxtada o'ynaluvchi donali o'yinlar ham taraqqiy etdi. Shunday donali o'yin ashyolari Termiz shahridan 12 km shimolda joylashgan Kushonlar davriga oid Haydarobodtepa yodgorligidan ham suyakdan yasalgan o'yin donalari topilgan. O'yin donalari kvadrat shaklda to'rtala tomoni ham tekis qilib ishlangan[8:52-54]. O'yin donalarining o'tasida maxsus teshik qoldirilgan. O'yin donalari bilan o'tkaziladigan bunday o'yinlarning barchasi aqliy o'yinlar bo'lib, ishtirokchilarni fikrlashga va mantiqiy yechimlarni amalga oshirishga tayyorlagan va shu o'yinlar doirasida bellashuvlar o'tkazilgan.

Aqliy o'yinlar turlari qadimgi Turon hududida ko'plab bo'lib, ilk o'rta asr madaniy hayotida ham katta ahamiyatga ega bo'lgan. Shu bilan birgalikda bolalar o'tasida qadimdan mavjud bo'lgan taqlib yoki topqirlik o'yinlarida turli haykalchalardan foydalanib kelingan. Bunday haykalchalar Xorazmnning ilk o'rta asr shaharlaridan ham ko'plab topib o'rganilgan[9:196]. Hayvonlar, o'simliklarni farqlash uchun aqliy va kattalar turmush tarzi, mashg'ulotiga taqlid tarzida vujudga kelgan tanqidiy o'yinlar hozirgi kunda ham mavjud hisoblanadi.

Aqliy o'yinlar ichida suyak tashlash ancha keng hududlarga yoyilgan bo'lib, bevosita chorvador aholi tomonidan o'ynab kelingan. Bunday suyak donalaridan tashqari ayrim mashg'ulot bilan bog'liq topilmalar ham keng tarqalgan. Xususan, turli taqinchoqlar, to'g'nog'ichlar[10:12-13] shular jumlasidandir. Bunday taqinchoqlar nafaqat Farg'ona vodiysidan, balki boshqa hududlardagi manzilgohlardan ham keng topilgan.

Suyakdan yasalgan o'yin donalari Turondan tashqari Onado'li hududlaridan ham aniqlangan[11:372]. Bunday o'yin donalaridan kattalar o'yinlarini o'tkazishda foydalanilgan. Tavakkalchilik o'yinlarida oshiq suyagini asosiy vositaga aylanishi va tarqalishi hududi Sharqiy

TARIX

Turkiston va Shimoliy Xitoy hududlarigacha yoyilganligi diqqatga sazovordir. Bunday katta hududlarga ushbu o'zin vositasining yoyilishi boisi, aynan ushbu mintaqalarda chorvador aholining istiqomat qilib kelganligi hisoblanadi.

Aqliy va boshqa turli o'yinlarning asosiy maqsadlaridan biri bolalarni o'qitish va to'g'ri rivojlanishida qo'llash bo'lган. Shuningdek, bunday o'zin turlarining o'ylab topilishi bevosita milliy o'yinlar tizimidagi zaruriy ehtiyojlar tufayli shakllangan. "Oshiq o'yini"[12:242] ham aslida chorvachilik mashg'uloti mahsuli bo'lib, aslida tavakkalchilik maqsadida joriy etilmagan bo'lishi mumkin. Keyinchalik o'zin vositasidan boshqa usullarni tadbiq etgan o'zgacha o'yinga asos qilib olingan.

XULOSA

Ming yillar davomida shakllangan xo'jalik mashg'ulotlari, turmush tarzi natijasida bir qator o'yinlar shakllandi. Ushbu o'yinlarning kelib chiqishi va rivojlanishi natijasida aqliy o'yinlar ham gullab-yashnadi. Aholining ma'nnaviy ehtiyojlarini qondirdi, bolalar tarbiyasi va ta'limi uchun asos bo'ldi. Shuningdek, ushbu vositalardan boshqa o'yinlarni shakllantirishda ham foydalanildi.

Aqliy o'yinlar bir necha ming yillik boy tajribalarning mahsuli bo'lib, Turon qadimgi aholisining madaniy hayoti ajralmas qismiga aylandi. Xususan, "shatranj" o'lkaga "chaturanga" shaklida Hindistondan kirib kelgan bo'sada, mahalliy o'lkha sharoitlari va hayvonot olamine o'zida aks ettirdi. Ayrim donalar keyinchalik qo'chqor yoki Turon buqasi shaklini oldi.

Umuman olganda aqliy o'yinlar taraqqiyoti tahlili qadimgi Turon aholisi turmush tarzini tadqiq etishda va tushunishda alohida qimmatli majmua hisoblanadi. Ushbu majmua asrlar osha yanada boyib ma'lum tabaqa yoki ijtimoiy guruhning sevimli o'yinlariga yalanganligi o'rta asr tarixiy manbalarida o'z aksini topgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Массон В.М. Древнеземледельческая культура Маргианы. Москва, Ленинград. 1959. 216 с.
2. Массон В.М. Средняя Азия и древний Восток. –Москва-Ленинград. 1964. 86 с
3. Лоплекова О. Локальная вариабильность в культуре и хозяйстве джейтунских племён. Ашхабад. 1988. 180 с.
4. Массон В.М. Средняя Азия и древний Восток. –Москва-Ленинград. 1964. 468 с.
5. Кирчо Л.Б., Коробкова Г.Ф., Массон В.М. Технико-технологический потенциал энеолитического населения Алтын-депе как основа становления раннегородской цивилизации. Труды ИИМК РАН. Т. XXVIII. Санкт-Петербург. 2008. 370 с.
6. Аскаров А.А. Қадимги Турон энеолит, бронза ва илк темир даври цивилизациялар тариҳидан лавҳалар. –Тошкент. 2023. 360-бет.
7. Сагдуллаев А., Ртвеладзе Э. В стране золотого огня. Тошкент. 1983. 93 с.
8. Альбаум Л.И. Балалыктепа. Ташкент. 1960. 228 с.
9. Толстов С.П. Древний Хорезм. –Москва 1948. 440 с.
10. Anorboyev A. Farg'onaning qadimgi va shaharlari va ularning Markaziy Osiyo tarixida tutgan o'rni. – Toshkent, 2022. 144-b.
11. Minniti C. Ancient use of the knuckle-bone for rituals and gaming piece // Anthropozoologica. 2013. 48 (2): 371-380. <http://dx.doi.org/10.5252/az2013n2a13>
12. Йўлдошев С.В. Халқ ўйинларининг тарихий, илмий – педагогик асослари // Research Focus. Volume 1. Issue 1. 2022. – Б. 240 – 248.